

6-SINF TARBIYA. ChSB - 1. Original variant

Sana: _____ **Sinf** _____

O'quvchining F.I.SH. _____

- 1. Qanday xulq-atvorlar to'g'riligi, qaysilari esa noto'g'riligini belgilab beruvchi qoidalar to'plami nima deb ataladi? (B – 2 ball)**
A) Qadriyat B) Qonun C) Axloq D) Huquq
- 2. Qanday inson o'z xatolaridan saboq chiqaradi va ularni takrorlamaslikka harakat qiladi? (B – 2 ball)**
A) Jazavali B) Donolik bilan fikrlovchi C) Beparvo D) Shoshqaloq
- 3. Qanday inson qiyin vaziyatlarda ham xotirjamligini saqlaydi? (B – 2 ball)**
A) Sabrsiz B) Tinchliksevar C) Xafaqon D) G'azabkor
- 4. Insondagi qanday tuyg'u har doim qalbida yashaydi va o'z yurtiga nisbatan mehr muhabbat uyg'otadi? (B-2 ball)**
A) Aql B) Ziyraklik C) Vatanparvarlik D) Odillik
- 5. Quyidagilardan sabrlikka oid tushunchalarni toping. (Q-2,8 ball)**
1) mashaqqatlarni yengib o'tish; 2) chidam, bardosh degan ma'nolari bor;
3) odamlarni chalg'itadi; 4) vaqtni o'g'irleydi.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 3, 4 D) 1, 2
- 6. Sinfdoshlar o'rtasida tushunmovchilik yuz berdi va bir o'quvchi bexosdan boshqa o'quvchining daftarini yirtib qo'ydi. Shu vaziyatda qanday harakat qilish ma'qul? (Q - 2,8 ball)**
A) Jahl bilan javob qaytarish B) UZR so'rash
C) Vaziyatni e'tiborsiz qoldirish D) Aybni bo'yniga olmaslik
- 7. Murod avtobusga chiqib bo'sh o'rindiqqa o'tirib oldi. Keyingi bekatda, qo'lida og'ir sumkalari bilan yoshi katta Nasiba buvi chiqib keldi. Murod bu buvi bilan tanish edi. Ushbu vaziyatda Murod qanday yo'l tutishi kerak? (Q-2,8 ball)**
1. E'tibor bermasdan o'tirishda davom etishi kerak 2. O'zini band ko'rsatib o'tirishi kerak 3. O'rnidan turib joy berishi kerak 4. Nasiba buvining sumkasini ko'tarishga yordam berishi kerak 5. Boshqalar joy berishini kutishi kerak
A) 3, 4 B) 1, 3 C) 2, 5 D) 1, 5
- 8. Mahallalarda kishilar o'rtasida qanday munosabatlar an'anaviy tarzda avloddan avlodga o'tib kelmoqda? (Q- 2,8 ball)**
1) yaxshi qo'shnichilik; 2) yoshi kattalarni hurmat qilish, keksalar, bolalar va bemorlarga yordam berish; 3) mahalladagi hashar, jamoat ishlariga yordam berish; 4) kim o'zarga to'y qilish; 5) bir birini ko'rolmaslik.
A) 1, 2, 4 B) 2, 4, 5 C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 5
- 9. Dars tugagandan keyin shoshib maktabdan chiqqan o'quvchi tezda avtobus bekatiga qarab chopdi. Avtobus kelishi bilan hech kimga yo'l bermasdan, yo'lovchilarni turtib birinchi bo'lib chiqib oldi. Manziliga kelganda ayyorligi tutib pul to'lamasdan tushib qochib ketdi. Ushbu vaziyatda o'quvchi qanday harakatlarni sodir qilgan? (Q-2,8ball)**
A) Ijobiy harakatlar B) Yaxshi harakatlar
C) Neytral harakatlar D) Noo'rin harakatlar

10. Umida yangi matematik topshiriqni yechishga harakat qiladi. Birinchi urinishda u xato qiladi, lekin u tinimsiz harakat qilib, oxir-oqibat to'g'ri javobni topadi. Umida bu vaziyatda qanday xulq ko'rsatgan bo'ladi? (Q-2,8 ball)

- A) Tez charchab, topshiriqni tashlab ketadi
- B) Sabr qilib, xatolaridan o'rganadi va muvaffaqiyatga erishadi
- C) Sinfdoshini ayblab, o'zini yaxshi his qilmaydi
- D) Javobni bilgan sinfdoshidan javobni so'rab, hech narsa qilmaydi

11. Azizbek xonasini tartibga keltirayotganda onasining ko'zoynagini sindirib qo'ydi. Onasidan qo'rqqanidan aybni opasiga to'nkadi. Ushbu vaziyatda Azizbek qanday yo'l tutishi kerak edi? (Q-2,8ball)

- A) Bilib-bilmaslikka olishi kerak edi
- B) Axlatga tashlab ko'zoynak yo'qoldi deyishi kerak edi
- C) Aybini bo'yniga olishi, aldamasligi kerak edi
- D) Xonasini tartibga keltirmasligi kerak edi

12. Bahor mavsumida sinf o'quvchilari hovlida sport o'yinlari o'ynashmoqda. Jamshid do'stini kuldirish maqsadida atayin to'pni uning oyog'i ostiga uloqtirdi. Do'stining oyog'i jarohatlandi. Ushbu vaziyatda Jamshid qanday ish qilgan bo'ladi? (Q-2,8 ball)

- A) To'g'ri ish qilgan, chunki bu hazil edi
- B) Noto'g'ri ish qilgan va darhol do'stidan kechirim so'rashi kerak
- C) Do'stini ayblash va kulish orqali vaziyatni hal qilishi kerak
- D) Sport o'yinlarining qoidasi bo'yicha to'g'ri qilgan


13. Sardor darsda yangi mavzuni tushunmay qiynaldi. Sinfdoshi Anora unga mavzuni tushuntirib, misollarni birga yechib, yordam berdi. Sardor o'zi uchun qilingan bu yordamni qadrladi. Sardorda qanday his-tuyg'usi paydo bo'ladi? (Q-2,8 ball)

- A) Minnatdorlik
- B) Manmanlik
- C) Kibr
- D) Hadiksirash

14. Dildora maktabdan qaytayotganda ko'chada og'ir sumka ko'targan o'zidan kichik qizchani ko'rib qoldi. Dildora charchagan bo'lsa ham shu qizga sumkasini ko'tarishga yordam berdi. Dildoraning bu xatti-harakatini "Oltin qoida" bo'yicha qanday baholash mumkin? (Q-2,8 ball)

- A) O'zi istaganidek, boshqalarga ham yordam berib, mehr ko'rsatdi
- B) Yordam qilish orqali boshqalardan maqtov kutdi
- C) O'zi ham hech kimga yordam bermaydi, shuning uchun bu safar ham befarq bo'lishi kerak edi
- D) Yordam berishi shart emas edi, chunki qizning o'zi ham uddalardi

15. Nima deb o'ylaysiz, quyidagi suratlardagi 1-vaziyatdan 2-vaziyatga o'tganda bolalar orasidagi o'zaro munosabat o'zgarishiga nima sabab bo'ldi? (M – 4 ball)



- A) Minnatdorchilik bildirishi
- B) Bir-biriga hamdardlik bildirishi
- C) Kechirimli bo'lishi
- D) Shunchaki o'z narsasini qaytarib olishi

